

Approaches for Pupils with Special Educational Needs: A Scoping Study, Child Art Therapy 25th Anniversary Edition Research America-2010.

5. J.A. Rubin Bolalar art terapiyasi 2012.

6. Susan Losel The Intersection of ART's education and special education 2012

7. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. T.: "Adolat", 2017.

8. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, manlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevori. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganini 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi 2017 7 dekabr. T.: "O'zbekiston", 2018.

9. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. T.: "O'zbekiston", 2017 yil.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020 yildagi PQ-4860-son ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSISIDA

Internet saytlari:

1. www.ziyouhet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.gov.uz.

7. fanining o'quv dasturi Jizzax davlat pedagogika universitet Kengashining 202 yil "____" dagi _____-sonli Kengash qarori bilan tasdiqlangan.

8. **Fan/modul uchun ma'sullar:**
 J.A. Haqberdiyev – JDPU "Maxsus pedagogika" kafedra o'qituvchisi
 S.A. Axrorova – JDPU "Maxsus pedagogika" kafedra o'qituvchisi

9. **Tag'rizchilar:**
 M. Tilakova – Jizzax viloyat XXQT va MO instituti kafedra mudiri p.f.f.d. (PhD)
 D. Alibekov – O'zMU Jizzax filiali psixologiya kafedra mudiri dotsent

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



INKLUVUZIV TA'LIM
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim

Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim

Ta'lim yo'nalishi: 60112700 – Maxsus pedagogika Surdopedagogika (qo'shimcha surdofarjimonlik)

Fan/modul kodi 351ITM04	O'quv yili 2022-2023	Semestr 3	ESTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4	
1.			
Fanning nomi Inklyuziv ta'lim	Auditoriya mashg'ulotlari (soat) Ma'ruza-30 Amaliy-30 Jami-60	Mustaqil ta'lim (soat) 60	Jami yuklama (soat) 120
2.			
1. Fanning mazmuni			
Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda alohida yordamga muhtoj bo'lgan va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar va o'smirlar ehtiyojini qondirish va ijtimoiy hayotga moslashuviga yo'naltirilgan hamda umumiy ta'lim jarayoniga to'laqonli jalb qilish, qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimi bilan tanishtirish bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdir.			
Fanning vazifasi - talabalarga inklyuziv ta'lim fani nazariyasi hamda uni tashkili etish va amaliyotga joriy qilishni o'rgatishdan iborat.			
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)			
II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: ma'ruza 30 (soat)			
1-mavzu: Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari. (2soat)			
Inklyuziv ta'limning mazmuni va maqsadi, vazifalari. Inklyuziv ta'lim asoslari. Inklyuziv madaniyati. Inklyuziv ta'lim nuqumolari. Inklyuziv ta'limni joriy qilishning ta'lim-tarbiya jarayoni umumiy va maxsus korreksion ta'lim talablari. Integratsiyalashgan ta'lim va inklyuziv ta'lim o'rtasidagi farqlar.			
2-Mavzu: Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj va sabablar (2 soat)			
Inklyuziv ta'limni joriy qilish davr talabi sifatida. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishga bo'lgan ehtiyojlar. Inklyuziv ta'limning afzalilik jihatlari.			
3-mavzu: Inklyuziv ta'limning tamoyillari (2 soat)			
Inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari. Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi. Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi; Bog'lanihning mavjud bo'lishi; Markazlashtirilmagan bo'lishi; Inklyuziv ta'limda kompleks yondashish; Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik; Malakaviylik tamoyili.			
4. Mavzu Inklyuziv ta'lim siyosatining jahon miqyosida nazariy va amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi (2soat)			
Xalqaro UNICEF miqyosida. Maxsus ta'limga muhtoj bolalarga integratsiyalashgan ta'lim sharoitlarida yordam ko'rsatishning g'arbiy Yevropa tajribasi. Jahon miqyosida inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish borasida amaliy tajribalar.			
5-Mavzu: Markaziy Yevropa va Osiyo davlatlarida inklyuziv ta'limning joriy etilishi (2soat)			

Evropa davlatlarida integratsiyalashgan-inklyuziv ta'lim muammolarini hal qilinishi. Yevropada inklyuziv ta'lim. Inklyuziv ta'lim tizimini qo'shni hamdo'stlik va osiyo davlatlarida joriy qilinishi.

6-Mavzu: O'zbekiston Respublikasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'lim tizimining joriy etilishi masalalari (2soat)

Inklyuziv ta'lim siyosatining xalqaro huquqiy asoslari. O'zbekistondagi huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farnoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash. O'zbekistonda integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limni rivojlantirish siyosati. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga joriy etishning pedagogik imkoniyatlari

7- mavzu: Inklyuziv ta'limning pedagogik-psixologik xususiyatlari. (2soat)

Ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limning pedagogik – psixologik xususiyatlarini shakllantirishda imkoniyati cheklangan bolalarni psixologiyasini o'rganish, psixologik diagnostik usullar asosida kasalligi darajalarini aniqlash asosida inklyuziv ta'lim jarayonida ta'lim muassasalariga to'liq qatnashishlarini ta'minlash.

8-Mavzu: Umumta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish bo'yicha pedagogik jarayonni tashkil etish yo'llari (2soat)

Ko'rishida, eshitishda va yengil darajadagi aqliy rivojlanishda muammosi bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limda sinf xonalari va dars jarayonini moslashtirish. Sinf va guruhlarda inklyuziv ta'lim tushunchasini rivojlantirish. Inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning ba'zi bir xususiyatlari.

9-Mavzu: Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim muassasalarida o'qitishda maktab va uy ta'limi.(2soat)

Inklyuziv ta'limda samaradorligini oshirishda resurs o'qituvchining o'rni. Resurs o'qituvchining vazifalarni amalga oshirish. Uy ta'limi. Imkoniyati cheklangan bolalarni uyda o'qitish uchun namunaviy o'quv rejalari.

10-Mavzu: Inklyuziv ta'limda mutafakkirlarining bola ta'lim-tarbiyasidagi o'rni va inklyuziv ta'limda ta'lim-tarbiyaning psixologik xususiyatlari.(2soat)

Inklyuziv ta'lim jarayonida mutafakkirlarining bola ta'lim-tarbiyasidagi o'rni. Sharq mutafakkir va allomalarning ta'lim-tarbiya haqida yaratgan asarlari. Inklyuziv ta'lim-tarbiyaga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar.

11-Mavzu: Otilada inklyuziv ta'lim-tarbiyaning psixologik xususiyatlari (2soat)

Otilada inklyuziv ta'lim-tarbiyaning ahamiyati. Bolalardagi jismoniy va ruhiy, tarbiyaga bevosita aloqador kamchiliklar.

12-Mavzu: Inklyuziv ta'limda maktabgacha yoshdagi bolalarning

4

rivojlantirish omillari (2soat)

Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari. Shaxsiy –psixologik rivojlanish. Bolaning ijtimoiy jihatdan rivojlanish darajasi. Intellektual (aqliy rivojlanish). Ijodkorlikni rivojlantirish.

13-Mavzu: Ta'lim muassasalarida sog'lom va imkoniyati cheklangan yoshlar o'zaro mulqotining ijtimoiy pertseptsiyasi (2soat)

Ijtimoiy pertseptsiya. «Identifikatsiya». Empatiya. Refleksiya. Kauzal atrabatsiya. Seriotiplashirish.

14-Mavzu: O'rta maxsus, kasb-hunariga yo'naltirish va oliy o'quv yurtlarida inklyuziv ta'lim (2soat)

Umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatida o'quvchilarni hayotga tayyorlash va kasb tanlashga yo'naltirish. Kasb-hunarga yo'naltirish tizimining tarkibiy tuzilishi. O'quvchilarning kasb-hunar yo'nalishlarini tanlashlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Oliy ta'lim muassasalariga nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'shimcha davlat granti kvotalari asosida o'qishga qabul qilinishi. Oliy o'quv yurtlarida inklyuziv ta'lim.

15-Mavzu: Inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik-psixologik metodlari (2soat)

Uzlaksiz ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning pedagogik-psixologik bosqichlari. Ayratish bosqichi. Shug'ullanish bosqichi. Reabilitatsiya bosqichi. Integratsiya bosqichi. Inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning usullari. Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy qilish oldida turgan muammolar va to'siqlar. Salbiy munosabat. Hamjamiyatda ko'rinishlik. Moddiy mablag' muammolari. Jismoniy moslashtirish. Sinfdagi o'quvchilar soni. Qaramlik. Jinsiy belgilarga qarab kamitish. Favqulodda vaziyatlar, mojorolar va qochoqlar.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar multimedya qurilmalari bilan jhozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

III.1. Amaliy mashg'uloti mavzulari

1-mavzu: Inklyuziv ta'limning mohiyati. Integratsion ta'lim va ijtimoiy reabilitatsiya.

Reja:

1. Inklyuziv ta'limning mohiyatini "Yangilik kashf etish" orqali o'rganish (evristik) usuli orqali yoritng.
2. Integratsion ta'lim «Birgalikda o'qiyimiz» texnikasidan foydalangan holda yoritng.
3. Ijtimoiy reabilitatsiya. Ikki qismli kundalik metodidan foydalanib mazmunini yoritng.
- 2-mavzu: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyati

Reja:

5

1. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni "Klaster metodi" yordamida izohlang.
2. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqiga oid hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish
3. Inkiyuziv ta'limda o'qitishning mazmun-mohiyati o'rganish va tahlil qilish.

3-mavzu: Inkiyuziv ta'limni boshqarish tamoyillari.

Reja:

1. Inkiyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi.
2. Bog'lanishning mavjud bo'lishi
3. Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.

4-mavzu: Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni ta'limga jalb etishda oila va jamoatchilik bilan ishlash

Reja:

1. Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalar "Kungaboqar" texnologiyasi asosida o'rganish.
 2. Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni ta'limga jalb etishda oila bilan ishlash jarayonlarida testlar bilan ishlash.
 3. Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni ta'limga jalb etishda jamoatchilikning o'rni Venn diagrammasidan foydalangan holda yoritng.
- 5-mavzu: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda maxsus pedagoglar va tutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) vazifalari.**

Reja:

1. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga individual ta'lim dasturlari haqida
2. Individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda maxsus pedagoglar va tutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) maqsadi.
3. Individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda maxsus pedagoglar va tutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) vazifalarini o'rganish va tahlil qilish.

6-mavzu: Umumta'lim maktablarida inkiyuziv ta'lim uchun shart-sharoitlar yaratish, inkiyuziv ta'lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish

Reja:

1. Umumta'lim maktablarida inkiyuziv ta'lim uchun shart-sharoitlar yaratish. Ikki qismli kundalik metodi asosida taqqoslang.
2. Inkiyuziv ta'lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish. (Inkiyuziv ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish asosida o'rganish)
3. Umumta'lim maktablarida inkiyuziv ta'limda jismoniy madaniyat darslarining olib borilishi "Estafeta" musobaqalarini tashkil etish.

7-mavzu: Darsni tashkil etishda inkiyuziv o'qituvchining faoliyati.

Reja:

1. Inkiyuziv darsni tashkil etish (Zakovat ko'rinishidagi darslar metodidan foydalanish).
2. Darsni tashkil etishda inkiyuziv o'qituvchining faoliyatini "Skarabey" texnologiyasi asosida o'rganish.
3. Inkiyuziv o'qituvchining darsdan tashqari ishari

8-mavzu: Inkiyuziv ta'lim va tibbiy – pedagogik – ijtimoiy model.

Reja:

1. Inkiyuziv ta'lim model.
 2. Inkiyuziv ta'lim va tibbiy – pedagogik model
 3. Inkiyuziv ta'lim va ijtimoiy model.
- Taqdimot asisida tushunchalar bering.

9-mavzu: Imkoniyati cheklangan bolalarga maktab va sinf xonalarini moslashtirishning pedagogik aspektlari

Reja:

1. Imkoniyati cheklangan bolalarga maktab va sinf xonalarini moslashtirishning tibbiy asoslari
2. Imkoniyati cheklangan bolalarga sinf xonalarini moslashtirishning pedagogik aspektlari
3. Imkoniyati cheklangan bolalarga sport xonalarini moslashtirishning pedagogik aspektlari

10-mavzu: Inkiyuziv va integratsiya ta'limning bir – birdan farqi.

Reja:

1. Inkiyuziv va umumiy ta'limning bir – birdan farqi Venn diagrammasi asosida yoritng.
2. Inkiyuziv va sinfdan tashqari ta'limning bir – birdan farqi Ikkik qismli kundalik asosida yoritng.
3. Inkiyuziv ijtimoiy ta'limning bir – birdan farqi. Baliq skleti yordamida yoritng.

11-mavzu: Umumta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish bo'yicha pedagogik jarayonni tashkil qilish yo'llari.

Reja:

1. Umum ta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalar psixologiyasi "Zigzag strategiyasi" metodi orqali yoritib bering.
2. Umum ta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalar pedagogikasi "Sinkveyn texnologiyasi" foydalanib yoritib bering
3. Umum ta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalar tibbiy madaniyati.

12-mavzu: Inkiyuziv ta'limning metodik ta'minotini (dasturlar, rahbar, pedagog va mutaxassislar) metodik tavsiyalar, boshqalarini) ishlab chiqish hamda takomillashtirib borish.

Reja:

1. Inkiyuziv ta'limda metodik ta'minot respublikamiz va xorij oliimlarining tadqiqot ishlarini tahlil qilng.
2. Dasturlar, rahbar, pedagogga metodik tavsiyalar

3. Mutaxassislariga metodik tavsiyalar

13-mavzu: Inklyuziv sharoitlarda ta'lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish

Reja:

1. Inklyuziv sharoitlarda ta'lim oluvchi imkoniyati cheklanganlar uchun psixologik- ishlarini tashkil qilish
2. Inklyuziv sharoitlarda ta'lim oluvchi imkoniyati cheklanganlar pedagogik ishlarini tashkil qilish (1 soatlik mashg'ulot ishlanmasini tayyorlash).
3. Inklyuziv sharoitlarda ta'lim oluvchi imkoniyati sog'lom bolalar uchun psixologik-pedagogik ishlarini tashkil qilish (amaliy tarzda kichik guruhlarda ishlash)

14-mavzu: Inklyuziv ta'lim jarayonida eshitishda, ko'rishda va tayanch harakat a'zolari buzilgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni amalga oshirishning ilmiy va uslubiy asoslari.

Reja:

1. Inklyuziv ta'lim jarayonida eshitishda, ko'rishda bolalar uchun inklyuziv ta'limni amalga oshirishning ilmiy va uslubiy asoslari.
2. Inklyuziv ta'lim jarayonida eshitishda, bolalar uchun inklyuziv ta'limni amalga oshirishning ilmiy va uslubiy asoslari.
3. Inklyuziv ta'lim jarayonida tayanch harakat a'zolari buzilgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni amalga oshirishning ilmiy va uslubiy asoslari.

15-mavzu: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablar

Reja:

1. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan tibbiy talablar
 2. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga pedagogik talablar
 3. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga psixologik talablar
- Talabalar tomonidan Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalariga qo'yiladigan tibbiy, pedagogik va psixologik talablarni Yelpig'ich metodi asosida o'rganish.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'limdan ko'zlangan maqsad va vazifalar - bu talabalarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta'lim amaliy mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o'z ichiga oladi.

IV.1. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Inklyuziv ta'lim kursining predmeti, ob'ekti, tamoyillari, maqsad va

vazifalari

2. Inklyuziv ta'limning tamoyillari va unga bo'lgan ehtiyotlar va uning sabablari, bosqichlari
3. Imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim maktablarida o'qitishda konseptual talablar
4. Inklyuziv ta'lim va xalqaro huquqlari
5. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turi kasblarga ta'birni amalga oshirish.
6. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash;
7. Jamoatchilik o'rtasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish;
8. O'quvchilarning jismoniy va aqliy talab-ehiyojidan va ta'lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini optimallashtirish;
9. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash;
10. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi vazifalar belgilangan.
11. Inklyuziv ta'limning butun jahonda e'tirof etilishining mohiyati va bu ta'lim tizimining hammasi uchun ochiqdigi
12. Inklyuziv ta'limni boshqarish tamoyillari
13. Yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni ta'lim tizimiga jalb etishda o'ta-onalar, oila va jamoatchilik bilan ishlash
14. Inklyuziv ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatuvchi resurs o'qituvchi va ijtimoiy pedagogni vazifalari va maqsadlari
15. Inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarga inklyuziv ta'lim tizimida korreksion-pedagogik ishlar
16. Korreksion-pedagogik ishlarini tashkil etishning tashkiliy, huquqiy, uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish usullari
17. Inklyuziv va integratsiya ta'limining bit-biridan farqi
18. Inklyuziv ta'limning ijtimoiy strategiyasi
19. Inklyuziv ta'limning hususiyatlar (ochiqdigi va undan foydalanish
20. Integratsiya va inklyuziv ta'lim
21. Umumta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish

<p>bo'yicha pedagogik jarayonini tashkil qilish yo'llari.</p> <p>22. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim jarayonida o'qitish bo'yicha individual reja dasturlarini yaratish va o'quv metodik adabiyotlarini moslashtirish.</p> <p>23. Integratsion ta'lim va ijtimoiy reabilitatsiya</p> <p>24. Umumta'lim maktablari jarayonida eshitishda, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar va tayanch harakat a'zolari buzilgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni amalga oshirishning ilmiy va uslubiy asoslari</p> <p>25. Imkoniyati cheklangan bolalarni maktabga tayyorlashda ota – onalar, mahallalar va pedagoglarning o'rni va hamkorligi.</p> <p>26. Darsni tashkil etishda inklyuziv o'qituvchining faoliyati.</p> <p>27. Inklyuziv ta'lim bilan tibbiy – pedagogik – ijtimoiy model.</p> <p>28. Imkoniyati cheklangan bolalarga maktab va sinf xonalarini moslashtirish va korreksion yordam va ularning huquqiy, pedagogik aspektlari.</p> <p>29. Ta'lim muassasalarida sog'lom va imkoniyati cheklangan yoshlar o'zaro mulqotining ijtimoiy pertseptsiyasi.</p> <p>30. Uzlaksiz ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning pedagogik-psixologik bosqichlari</p> <p>IV.2. Mustaqil ta'limni o'zlashtirish tartibi.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>	<p>3.</p> <p>V. Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetentsiyalari)</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • xalq ta'lim tizimida inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj, inklyuziv ta'lim va xalqaro huquqlar, inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy qilish borasidagi huquqiy me'yoriy hujjatlar, inklyuziv ta'lim tizimida kadrlarni tayyorlash siyosatini bilishi kerak; • ma'ruzalarda bakalavr talabalar bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya, Ta'lim to'g'risidagi qonun, Ta'lim hamma uchun reja harakat dasturi, Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi hamda bir qator qonun va me'yoriy hujjatlar bilan va inklyuziv ta'lim siyosatini bilishi; alohida yordamga muxtoj bolalarni o'z sog'lom tengdoshlari bilan umumta'lim tizimida ta'lim olish jarayoni va tamoyillarini tahlil etish va baholash; inklyuziv ta'lim jarayonida nogiron bolalarni o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish; inklyuziv ta'lim bo'yicha o'quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqish; inklyuziv ta'limni joriy qilishda jaxon tajribasini o'rganish; inklyuziv ta'limda yangi pedagogik texnologiya va axborot texnologiyalarini qo'llash; inklyuziv ta'lim zamonaviy yutuqlarini tahlil etish ko'nikmasiga ega bo'lish: • maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni topish va yordam berish; inklyuziv ta'limni tashkil etish va olib borish; inklyuziv ta'lim bo'yicha o'quv reja va dasturlarni bola imkoniyatiga moslashtirish; bolani qiziqirish, iqtidorini hisobga olish; bolalarni imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda yuqori darajali o'qitishni tashkil etish malakasiga ega bo'lish lozim.
---	--

<p>4.</p> <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalalar. 	<p>5.</p> <p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks etira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil munshohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.</p> <p>Joriy nazorat. Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juflik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi. Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Oraliq nazoratlar. Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.</p> <p>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.</p> <p>Yakuniy nazorat</p> <p>Yakuniy nazorat yozma shaklida o'tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.</p>	<p>6.</p> <p>VIII. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Raxmanova V.S. Maxsus pedagogika. Toshkent. «G'offur G'ulom» 2004 y. -555 bet. 2. Logopediya. M. Ayupova. O'zbekiston faylasufi milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2007 3. Maxsus psixologiya L.R.Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N.N.Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjonova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova, O'zbekiston faylasufi nashriyoti Toshkent-2013 <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. R.Sh.Shomaxnudova "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma. 2. Shomaxnudova sh.R. Berdieva. Metodik tavsiya 3. Mo'minova L.R. "Inklyuziv ta'lim". Dastur. T. 2014 4. Pauline Davis, Lani Fiorani, Judith Aron Rubin. Teaching Strategies and
--	---	--